

O'TISH DAVRIDA NAVOIY VILOYATI AHOLINING IJTIMOIIY MUHOFAZASI SOG'LIQNI SAQLASH, TA'LIM VA BANDLIK MASALALARI (1991-1998- YILLAR)

Parmonov Husan Shomurot o'g'li

Navoiy davlat universiteti

Tarix fakulteti Tarix kafedrası o'qituvchisi Mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21676370>

Annotatsiya. Mazkur maqolada 1991–1998-yillarda Navoiy viloyatida o'tish davri sharoitida amalga oshirilgan ijtimoiy muhofaza siyosati, sog'liqni saqlash, ta'lim va bandlik sohalaridagi muammolar hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan islohotlar arxiv hujjatlari va rasmiy statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda viloyat tibbiyot tizimining moddiy-texnik bazasi, tibbiy xizmat sifati, qishloq vrachlik punktlarini rivojlantirish, ta'lim muassasalaridagi kadrlar taqchilligi, olis cho'l hududlarida yashovchi aholining ijtimoiy muammolari, mehnat bozori holati va ishsizlikni kamaytirish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar yoritilgan. Shuningdek, kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalarni qo'llab-quvvatlash, bepul darslik va o'quv qurollari bilan ta'minlash, ijtimoiy nafaqalar tizimini takomillashtirish hamda davlatning "kuchli ijtimoiy siyosat" tamoyili asosida olib borgan islohotlarining hududiy xususiyatlari ilmiy jihatdan baholangan. Tadqiqot natijalari iqtisodiy transformatsiya davrida Navoiy viloyatida ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda sog'liqni saqlash, ta'lim va bandlik siyosati o'zaro uzviy bog'liq holda rivojlantirilganini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar. Navoiy viloyati, o'tish davri, ijtimoiy muhofaza, sog'liqni saqlash, tibbiyot islohotlari, ta'lim tizimi, bandlik, mehnat bozori, ishsizlik, qishloq vrachlik punktlari, ijtimoiy nafaqalar, kam ta'minlangan oilalar, cho'l hududlari, arxiv hujjatlari, bozor iqtisodiyoti, kuchli ijtimoiy siyosat.

Viloyatimiz sog'liqni saqlash tizimiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 1997-yil yakuni bo'yicha 771,1 mln. so'm mablag' sarflangan, mazkur ko'rsatgich aholi jon boshiga hisoblaganda viloyat bo'yicha o'rtacha 1203 so'mni tashkil etdi. Bu ajratilgan mablag' bir qaraganda yetarli ko'rinadi, lekin chuqur tahlil qilinganda bu mablag'ni 70 foizi ish haqi va xo'jalik xarajatlariga, 12,7 foizi bemorlarni ovqatlantirishga, 9,5 foizi dori-darmonga, qolgan 7,8 foizi esa safar xarajatlari, qattiq va yumshoq jihozlar olish va kapital ta'mirlash uchun ajratilgan xolos. Bundan ko'rinib turibdiki dori-darmon uchun ajratilgan 9,5 foizi mablag' hattoki birinchi tibbiy yordam ko'rsatishga ham yetarli emas¹.

Yumshoq va qattiq jihozlar uchun ajratilgan mablag'ni salmog'i o'ta past bo'lganligi uchun tibbiyot muassasalarini jihozlanishi nochor ahvolga kelib qolgan. Bundan tashqari shu ajratilgan mablag'ni tibbiyot muassasalari rahbarlari tomonidan samarasiz va maqsadsiz ishlatish, talon-taroj qilish hollari ham uchragan². Shuningdek viloyat tibbiyot sohasida 2260 ta shtat birligi qisqartirildi, ularning 184 ta vrachlik lavozimi edi. Bu kabi misollarni ko'plab aniq dalillar orqali ko'rsatishimiz mumkin. Xususan, Navoiy viloyatida sil kasalliklari sanatoriyasi va Xatirchi tumanida ham sil kasalligiga qarshi dispanser ochishga zarurat mavjud, kasallik o'chog'ida kontaktda bo'lgan bemorlarga himoyaprofilaktika uchun shu bugungi kungacha bir so'm ham mablag' ajratilmagan.

¹ Navoiy viloyati davlat arxivi, 100-fond, 1-ro'yxat, 304-yig'majild, 22-varaq.

² Navoiy viloyati davlat arxivi, 100-fond, 1-ro'yxat, 304-yig'majild, 23-varaq.

Viloyatdagi diagnostika markazi uchun ajratilgan bino qurilishi mablag' yetishmasligi tufayli to'xtatib qo'yilgan, buning natijasida xarid qilingan asbob uskunalar har joyda joylashganligi uchun bu qimmatbaho tashxis asboblaridan unumli foydalanmay kelingan.

Viloyatdagi davolash profilaktika muassasalarida xizmat ko'rsatiladigan tibbiyot xodimlari xizmati ham qoniqarli darajada emas. Bunga ayrim tibbiyot xodimlarining kasbiy bilim saviyasi yetarli emasligi va bemorlarga tibbiy xizmatning pasayib borayotganligi asosiy sabab sifatida ko'rsatilgan. Navoiy viloyatida jami vrachlar soni 1663 nafarni (MSO NGMK dan tashqari), o'rta tibbiyot xodimlari jami 6732 nafarni tashkil etgan. Umumiy vrachlardan 631 kishi yoki 37,8 foizi toifali ya'ni, ularning 154 nafari (24,4%) oliy toifa, 432 nafari (68,4%) 1-chi toifa, 44 2-chi toifa ega bo'lgan.

Mustaqillikning dastlabki yillaridagi Navoiy viloyati tibbiyot sohasidagi bu ayanchli holat sohada tub islohotlarni o'tkazishni talab etdi. Navoiy viloyatining qayta tashkil etilishi, Bozor iqtisodiyotiga o'tilayotgan bir davrda mazkur ijtimoiy sohani oyoqqa turg'azish uchun samarali ishlar qilish zaruratga aylandi.

Imkoniyatdan kelib chiqib kam xarajatli kunduzgi shakldagi xizmat turlari, kunduzgi statsionar, uy statsionari, SKAL markazlari, ambulatoriya jarrohlik markazlari tashkil etildi. 1997-yil yakuni bo'yicha umumiy davolanganlarga nisbatan kunduzgi shakllarda davolangan bemorlar salmog'i 45 foizni tashkil etgan bo'lsa, 1998-yil 6 oylik ko'rsatkich umumiy davolanganlarga nisbatan 64 foizni tashkil etdi. 1997-yilda 8 ta qishloq vrachlik punktlari qurilib, ishga tushirildi va tibbiy anjom, uskunalar bilan jihozlandi. Shuningdek, Navoiy shahar onkologiya dispanseri, Navbahor tumanida 60 o'rinli viloyat ruhiy-asab kasalliklari shifoxonasi, Navoiy tibbiyot bilim yurti o'quv korpusi va 500 o'rinli yotoqxona uchun qurish, Navoiy tog' metallurgiya kombinati balansida bo'lgan Navbahor tumani hududida joylashgan sog'lomlashtirish lageri binosida bolalar sil kasalliklari dispanserini tashkil etish, Qiziltepa tumanida 2 ta qishloq vrachlik ambulatoriyasini qishloq punktiga aylantirish, Muruntov qo'rg'onidagi kasalxona va Daug'iztau qishloq vrachlik ambulatoriyalarini qishloq vrachlik punktiga aylantirish, Jahon taraqqiyot banki tomonidan ajratilgan 11803,0 AQSH dollari mablag'lariga Navoiy viloyati hududidagi 51 ta qishloq vrachlik punktlari, 150 ta feldsherlik - akusherlik punktlarini tibbiy asbob uskunolari bilan jihozlash kabi strategik vazifalar o'rta tashlandi.

Ijtimoiy sohaning yana bir asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan ta'lim sohasiga to'xtalib o'tsak. Mazkur soha ham mustaqillik arafasi va mustaqillikning dastlabki yillarida ancha qiyin yo'lni bosib o'tganligini ko'rish mumkin. 1996-yilda Navoiy viloyatining Konimex, Tomdi, Uchquduq va Nurota tumanlarida qozoq millatiga mansub 96800 dan ortiq aholi yashagan. Bu hududlar viloyat markazidan 200 - 500 km uzoqlikda joylashgan bo'lib, aholining ko'p qismi asosan respublikamiz iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan Uchquduq, Zarafshon, Muruntov va Zafarobod shaharlarida va sanoat korxonalarida ishlaydi hamda chorvachilik bilan shug'ullanadi. Ushbu tumanlarda 95 ta qozoq maktablari bo'lib, ularda 24404 ta qozoq o'quvchilari ta'lim oladi. 1996-yilda ushbu yurtlardagi qozoq o'quvchilari bandlik natijalariga ko'ra, qozoq maktablarini tugatgan 1175 o'quvchidan 437 ta abituriyent hujjat topshirib, boryo'g'i 12 tasi test asosida qabul qilingan. Buning asosiy sababi respublika mustaqillikka erishguncha bu hududlarda o'zbek tili o'qituvchilari kam bo'lgan, ayrim maktablarda esa bu fanlar umuman o'qitilmagan. Tomdi tumani maktablariga 109 nafar o'qituvchi, jumladan 12 nafar matematik, 10 nafar fizik, 10 nafar o'zbek tili, 12 nafar chet tillari va boshqa fanlardan

o'qituvchilar yetishmovchiligi kuzatilganini misol tariqasida keltirish mumkin. Mustaqillikning dastlabki yillarida bu tumanlarda 214 ta o'qituvchi, 500 ga yaqin tibbiyot xodimi yetishmasligi arxiv xujjatlarida keltiriladi³. Shuningdek, olis cho'l hududlaridagi maktablarda o'qituvchilarning yanada kamayib borayotganligi, ishsizlik, aholiga tibbiy xizmatni talab darajasida emasligi sababli ommaviy ko'chishlar ro'y berganligi, xalqni noroziligi oshib, respublikaning markaziy tashkilotlariga, viloyat hokimligiga tez-tez murojaatlarning ko'payganligi arxiv materiallarida keltiriladi⁴. Yana misol keltiradigan bo'lsak, 1997-yilning 5 oy davomida viloyatning boshqa hududlaridan 123 kishi ko'chib kelgan bo'lsa, birgina Tomdi tumanidan 491 kishi ko'chib ketgan⁵.

1996-yilda viloyatdagi mehnat birjalariga 23,4 ming kishi murojaat qilgan. Jami murojaat etganlardan 12,7 ming kishi ishsiz maqomini oldi. Shulardan 11445 kishiga ishsizlik nafaqasi tayinlangan. Mehnat birjalari tomonidan 6729 kishi ishga joylashtirilgan, bu ko'rsatkich 1995-yilga nisbatan 76,2 foizni tashkil etgan⁶. Murojat etgan fuqarolar mahalliy aholi vakillari bo'lib, mehnat bozoriga mutaxassilikka ega bo'lmagan kadrlar bilan kirib kelgan. Sabab dastlari yillarda sohani yaxshi biluvchi, profesional kadrlarning O'zbekistonda boshqa hududlarga ko'chib ketishi tezlashgan. Ijtimoiy bo'xronlar ayniqsa Tomdi tumanida keskin kuzatilgan. Viloyatning qorako'lchilikka ixtisoslashgan mazkur tumanida mustaqillikning dastlabki yillarida bir qator muammolar, xususan chorvachilik uchun zarur bo'lgan resurslar narxlarining oshib ketishi, ishlab chiqariladigan chorva mahsulotlari xarid narxlarining past bo'lishi, 1993-yildan 1996-yilgacha chorvachilik uchun yillarning juda noqulay kelishi hamda joylarda yo'l qo'yilgan ayrim kamchiliklar sababli tumanda qo'ylar bosh soni kamayib ketgan. 1993–1996-yillar davomida jami 77080 bosh qo'y, 997 bosh ot va 475 bosh tuya nobud bo'lgan⁷.

1997-yilga so'nggi besh yil mobaynida birinchi marotaba qo'ylarning bosh soni Tomdi tumanida 20 ming boshga ko'paydi. Lekin ko'rilyotgan chora-tadbirlarga qaramasdan ayrim xo'jaliklarda mulkka bo'lgan munosabat o'zgarimasdan qolmoqda va cho'ponlar tomonidan qo'ylarni yo'qotish, talon-taroj qilish hollari ham uchragan. Bunday salbiy hollarni oldini olish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar belgilangan.

1997-yil sentyabr oyidan boshlab, har yili 1-sinf o'quvchilariga bepul o'quv anjomlari, darsliklarni berish joriy etildi kam ta'minlangan oilalarning boshlangich sinflarda o'qiydigan bolalariga bepul qishki issiq kiyimlar berish yo'lga qo'yildi. Serfarzand va kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalash tizimi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Kam ta'minlangan oilalarga va ko'p bolali muhtoj oilalarga moddiy yordam to'lovlarini moliyalashtirishning asosiy manbasi Respublika va mahalliy byudjet vositalaridir. Kam ta'minlangan oilalarga 1998-yilda to'langan nafaqalarning umumiy miqdori 3 mlrd. so'mni tashkil qildi, 16 yoshgacha bo'lgan farzandli oilalarga to'langan nafaqalar 15,6 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunday holat pensiya oluvchilar sonining ortib borishiga ham ma'lum bir ma'noda ta'sir ko'rsatdi. Ya'ni 1990-yillardan to 2002-yilgacha pensiya oluvchilar soni yildan-yilga oshib

³ Navoiy viloyati davlat arxivi, 100-fond, 1-ro'yxat, 282-yig'majild, 46-varaq.

⁴ Navoiy viloyati davlat arxivi, 100-fond, 1-ro'yxat, 282-yig'majild, 51-varaq.

⁵ Navoiy viloyati davlat arxivi, 100-fond, 1-ro'yxat, 285-yig'majild, 9-12 varaqlar.

⁶ Navoiy viloyati davlat arxivi, 100-fond, 1-ro'yxat, 285-yig'majild, 23- varaqlar.

⁷ Navoiy viloyati davlat arxivi, 100-fond, 1-ro'yxat, 306-yig'majild, 8-11 varaqlar.

bordi. Natijada 1991-yilda jami pensionerlar soni 215905 ming nafar bo'lsa⁸1998-yilda jami pensionerlar soni 2 mln 798,4 ming nafarga ⁹ yetdi va shulardan 574,4 nafari nogironlik pensiyasini oluvchilardir¹⁰.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan kuchli ijtimoiy siyosat, barpo etilgan aniq yo'naltirilgan ijtimoiy muhofaza tizimi, ijtimoiy ta'minot va serfarzand oilalarga yordam tizimining isloh qilingani jamiyatimizda fuqarolarning daromadlar bo'yicha qutblarga va guruhlariga ortiqcha bo'linishining oldini oldi, aholining qashshoqlashuviga yo'l qo'ymadi. Inson manfaatlarini deb e'lon qilingan 1997-yildagi ijtimoiy-madaniy tadbirlarni moliyaviy jihatdan ta'minlash dasturining amalga oshirilishi uchun davlat byudjetidan 123 milliard so'm yoki barcha byudjet xarajatlarining qariyb 40 foizi ajratildi. Shu jumladan, aholini ijtimoiy muhofaza qilish bo'yicha tadbirlarning amalga oshirilishi uchun 30 milliard so'm, sog'liqni saqlash, gazlashtirish, suv ta'minoti va ijtimoiy sohaning boshqa obyektlari qurilishi uchun 34 milliard so'm ajratildi. Mazkur yil davomida 6,7 million kvadrat metr uy-joyni ishga tushirish imkonini berdi. Shundan 5,4 million kvadrat metr uy-joy qishloqda barpo etildi. Turar joy sertifikatlari bo'yicha sotib olinadigan uy-joy narxining 50 foizini qoplash uchun byudjetdan 1,2 milliard so'm ajratildi. Bundan tashqari Nogironlarni davolash bo'yicha respublika markazi tashkil etildi. Toshkentda, Navoiyda va Farg'onada bolalar va kattalar uchun poliomiylit markazlari qurildi. 16 yoshgacha bo'lgan farzandi bor oilalarga nafaqa to'lash uchun 9,6 milliard so'm sarflandi. Ilk bor 1-sinf o'quvchilari o'quv qurollari bilan, kamxarj oilalarning boshlang'ich sinflarda o'qiydigan farzandlari qishki kiyimbosh bilan ta'minlandi. Maktab va oliy o'quv yurti o'qituvchilarining turmush sharoitini va mehnatiga haq to'lashni yaxshilash borasida muayyan tadbirlar amalga oshirildi.¹¹

⁸ ЎзМДА, М.110-жамғарма, 1-рўйхат, 335-йиғма жилд. 7-варақнинг орқаси.

⁹Агзамходжаев З. Социальная сфера: адресно на правовой основе/ Қадрият. Тошкент, 1998 йил 27 апрел, — №48

¹⁰ Умурзаков Б.Х. Совершенствование системы социальной защиты нетрудоспособных слоев населения Республики Узбекистан в условиях формирования рыночной экономики. Дисс. канд.экон.наук. Ташкент: 1995. – С. 65.

¹¹ Каримов И.Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан кураимиз 7-жилд. - Тошкент: Ўзбекистон, 1999. - Б.7-10.